

MUMTOZ ADABIYOTDA FUZULIY IJODINING O'RNI, SHOIR QO'LYOZMASINING MATNIY TAVSIFI

Jalilov Sharofiddin,
Yangi asr universiteti,
Sharq filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi

Akmaljonova Muhabbat,
Yangi asr universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkiy xalqlar mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy ijodi hamda shaxsiy kutubxonamizda saqlanayotgan "Fuzuliy devoni" qo'lyozma nusxasining matniy tavsifi va ilmiy tahlili yoritildi. Tadqiqot davomida qo'lyozmaning matniy tadqiqi hamda unda jamlangan she'rlar janrlarga bo'lingan holatda o'rganildi. Qo'lyozmada mavjud g'azal, muxammas, musaddas va ruboiylarning tarkibiy xususiyatlari tahlil qilinib, Fuzuliy ijodining badiiy-falsafiy mazmuni ochib berildi. Shuningdek, shoir asarlarida tasavvufiy qarashlar, ilohiy muhabbat, sabr va ma'naviy kamolot g'oyalarning ifodalanishi yoritildi.

Kalit so'zlar: Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy, mumtoz turkiy adabiyot, Ozarbayjon adabiyoti, devon qo'lyozmasi, nastaliq yozuvi, g'azal janri, tasavvufiy she'riyat, sharq mumtoz adabiyoti, zullisonayn shoir.

Abstract. This article covers the work of Muhammad Sulayman oglu Fuzuli, a major representative of the classical literature of the Turkic peoples, and the textual description and scientific analysis of the manuscript copy of "Fuzuliy Divan" stored in our personal library. During the research, the textual study of the manuscript and the poems collected in it were studied in a genre-by-genre manner. The structural features of the ghazals, muhammas, musaddas, and rubaiyats in the manuscript were analyzed, revealing the artistic and philosophical content of Fuzuliy's work. Also, the expression of mystical views, divine love, patience, and spiritual perfection in the poet's works was highlighted.

Keywords: Muhammad Sulayman oglu Fuzuli, classical Turkic literature, Azerbaijani literature, Divan manuscript, Nastaliq script, ghazal genre, mystical poetry, classical oriental literature, Zullisonayn poet.

Аннотация. В данной статье освещается творчество Мухаммада Сулеймана оглы Физули, крупного представителя классической литературы тюркских народов, а также приводится текстологическое описание и научный анализ рукописной копии "Дивана Физули," хранящейся в нашей личной библиотеке. В ходе исследования было проведено текстологическое изучение рукописи, а собранные в ней стихи были рассмотрены в жанровом разрезе. Проанализированы структурные особенности газелей, мухаммасов, мусаддасов и рубаи, содержащихся в рукописи, и раскрыто художественно-философское содержание творчества Физули. Также освещено выражение в произведениях поэта суфийских взглядов, идей божественной любви, терпения и духовного совершенства.

Ключевые слова: Мухаммад Сулейман оглы Физули, классическая тюркская литература, азербайджанская литература, рукопись дивана, письмо насталик, жанр газели, суфийская поэзия, восточная классическая литература, поэт-зуллисанайн.

Kirish. Sharq mumtoz adabiyoti taraqqiyotida Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy alohida o'rin tutadi. U nafaqat ozarbayjon adabiyotining, balki butun turkiy xalqlar badiiy tafakkurining yuksalishiga katta hissa qo'shgan zabardast so'z san'atkoridir. Shoir ijodi o'zining chuqur falsafiy mazmuni, yuksak badiiy mahorati va insoniy tuyg'ularini nozik ifodalashi bilan asrlar davomida kitobxonlar qalbidan joy olib kelmoqda. Ayniqsa, uning

g'azallari Sharq she'riyati an'analarini yangi bosqichga olib chiqqan yuksak namunalar sifatida qadrlanadi.

Otashnafas she'rlari bilan turkiy xalqlarning mushtarak shoiriga aylanib ketgan, asrlar davomida turkiy she'riyatga kuchli ta'sir ko'rsatib kela olgan Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy 1498-yili Iroqning Karbalo shahrida tug'ilgan. Otasi Ozarbayjonning Bayot qabilasidan bo'lib, XV asr o'rtalaridagi siyosiy notinchlik tufayli ko'plab qabiladoshlari qatori, o'rta asrning madaniy markazlaridan bo'lgan Bag'dodga ko'chib boradi [1:3].

Adabiyotlar sharhi. Fuzuliyning yoshligi shoh va shoir Ismoil Xatoyi hukmronlik qilgan, ozarbayjon tili, adabiyoti va madaniyati gullagan davrga to'g'ri keladi. "Bu adabiyot turkiy xalqlar adabiyoti orasida Navoiy adabiy maktabidan keyingi eng ilg'or adabiy maktab edi" [2:8].

U Karbalodagi boshlang'ich maktabda savodini chiqarib, so'ng Bag'dod madrasalarida tahsilini kamolga yetkazadi, o'zi ham mudarrislik qiladi. Uning bir o'g'li bo'lib, Fazliy taxallusi bilan she'rlar yozgan va o'z zamonida ancha shuhrat qozongan.

Tadqiqot metodologiyasi. Juda yoshligidan qo'liga qalam olgan Fuzuliy boy adabiy an'anaga ega bo'lgan forsiy va turkiy adabiyotning Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy, Xoqoniy Shirvoniy, Mujrim Baylaqoniy, Salmon Sovajiy, Hofiz Sheroziy, Kamol Xo'jandiy, Imodiddin Nasimiy, Atoiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi atoqli so'z san'atkorlari ijodini mehr bilan o'qib-o'rganib, ularning mahorat sirlaridan bahramand bo'ladi. Uning she'riyatdagi ilk ustozlari ozarbayjon mumtoz adabiyotining taniqli namoyandasi Habibiy edi. Shoir ijodiga, ayniqsa, Lutfiy bilan Navoiy kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Tahlillar va natijalar. Fuzuliy o'zidan boy adabiy-falsafiy meros qoldirgan: she'riy devoni, "Layli va Majnun" dostoni, "Matla' ul-e'tiqod" ("E'tiqodning boshlanish joyi") falsafiy risolasi, "Haqiqat us-su'ado" ("Baxtiyorlar bog'i"), "Suhbat us-asmar" ("Mevalar munozarasi"), "Shikoyatnoma", "Bang va boda", "Anis ul-qalb" ("Qalb do'sti"), "Yetti jom" ("Soqiynoma" deb ham yuritiladi), "Rind va Zohid", "Sihat va Maraz" ("Sog'liq va Bemorlik") kabi o'nlab nazmiy-nasriy, falsafiy-didaktik asarlar. Shuningdek, u arab va fors tillarida ham mahorat bilan qalam tebratgan zabardast zullisonayn shoir hisoblanadi. U badiiy yuksak asarlari bilan ozarbayjon adabiyotini yangi bosqichga ko'tardi [1:5].

Fuzuliy ijodi turkiy, forsiy va arabiy adabiy muhit bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shoir uch tilda ijod qilgan zullisonayn ijodkor sifatida tanilgan. Uning "Layli va Majnun", "Bang va boda", "Shikoyatnoma", "Rind va Zohid" kabi asarlari Sharq adabiyotining nodir durdonalari qatoridan o'rin olgan. Shoirning boy adabiy merosi bugungi kunda ham adabiyotshunoslik, matnshunoslik va manbashunoslik nuqtayi nazaridan katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Qo'lyozma manbalar mumtoz adabiyot tarixini o'rganishda eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Xususan, devon qo'lyozmalarini tadqiq etish orqali muallif ijodining asl matni, she'riy merosining tarkibi, kotiblik an'analari va davr madaniy muhiti haqida

muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Shu jihatdan mazkur tadqiqotda shaxsiy kutubxonada saqlanayotgan "Fuzuliy devoni" qo'lyozma nusxasining matniy tavsifi, fizik holati va tarkibiy xususiyatlarini o'rganish asosiy maqsad qilib olindi.

G'azal bildirur shoiring qudratin,

G'azal orttirur noziming shuhratin[3:21].

deb yozgan Fuzuliy ijodida g'azal yetakchi o'rin tutadi: uning devonidan 300 ga yaqin g'azal, 75 ruboiy, 42 qit'a, bir necha tarjeband, tarkibband, muxammas va murabba'lar o'rin olgan. U Sharq mumtoz so'z san'atidagi zabardast qasidanavislaridan biri ham hisoblanadi – shoirning turkiy devonida – 27, forsiy devonida – 46, arabiy devonida – 12 qasida mavjud. Qasidalar, g'azallari va boshqa janrdagi asarlaridan til va uslub jihatidan bir qadar murakkabligi bilan ajralib turadi.


Biz ushbu tadqiqotda shaxsiy kutubxonamizda saqlanayotgan Fuzuliy devoni qo'lyozma nusxasi matniy tavsifi va tadqiqini amalga oshirib kitobxonlar e'tiboriga havola qildik. Ushbu qo'lyozma manba 119 varoq, muqovasi qattiq, karton qog'ozlik, "nastaliq" yozuvida yozilgan, 1278-hijriy yil ko'chirilgan, kotib nomi manbada ma'lum emas.

Qo'lyozma betlarida poygilar mavjud, ammo kitob orasidagi varaqlar noma'lum sabablarga ko'ra tushib qolgani uchun poygilar izchilligi ketma-ketlikda davom etmaydi. Xususan, 25a betning a sahifasi ostida joylashgan جان so'zli poygir navbatdagi sahifada mavjud emas, chunki keyingi varoq yo'qolgan. Xuddi shunday holatlar kitobning 50a-94a-99a-sahifalarida ham uchraydi.

Ushbu manbada shoir Fuzuliyning she'rlari devon tartibida ko'chirilgan, manbada jami 416-ta she'r mavjud bo'lib, ular 2479 misrani tashkil qiladi va g'azal, musaddas, muhammas, ruboiy janrlarga tegishlidir. Yuqorida sanalgan jarnlardagi she'rlarni quyidagi miqdor va jadval asosida ko'rish mumkin. Qo'lyozmada mavjud Shoirning g'azallari quyida alifbo tartibida jadval asosida berildi:

Bundan tashqari Shoirning 22 ta muxammasi(kitob yaxshi saqlanmagani sababli ba'zi sahifalar tushib qolgan, misol uchun 94a sahifadagi poygir b sahifada davom etmagan), 121 ta ruboiysi 30 ta musaddasi(musaddaslarda ham muhammasda uchraydigan saktaliklar uchraydi) mavjud bo'lib, Fuzuliy ijodining rang-barang ekanligini va mazmunan boy ekanligini yaqqol namoyon etadi. Shoir o'z asarlarida inson ruhiyatining eng nozik jihatlarini teran badiiy vositalar orqali ifodalashga muvaffaq bo'lgan. Uning ijodida ilohiy muhabbat, sabr, vafo va rizo kabi tushunchalar yetakchi o'rin egallaydi.

Ayniqsa, tasavvufiy ruhdagi she'rlarida insonning ichki kamolot yo'li bosqichma-bosqich tasvirlab beriladi. Shoir oddiy so'zlar orqali chuqur falsafiy ma'nolarni yetkazib, o'quvchini tafakkur qilishga undaydi. Uning she'rlari nafaqat badiiy jihatdan mukammal, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Fuzuliy ijodida nasihat ohangi bilan birga samimiylilik va ichki kechinmalar uyg'unlashib ketadi. Bu esa uning asarlarini har bir davr o'quvchisi uchun dolzarb va ta'sirchan qiladi. Quyidagi musaddas ham shoir ijodidagi ana shunday chuqur ma'no va yuksak badiiyatni o'zida mujassam etgan namunadir:



فۇزۇلى ایلدینک عهدینکا وفا قیلغیل
تیرسکایت ایدیپ ترک ماجرا قیلغیل
وجودینکی هدفناک بلا قیلغیل
قمو بلاره صبر ایلوب دعا قیلغیل
کیم اوله دوست رضاسو همن سکا حاصل
رضای دوست دور اصل تمتع ای غافل

Fuzuliy, aylading ahdingga vafo qilg'il, Tersgayt ayding tark mojaro qilg'il ,
Vujudingni hadafnoki balo qilg'il , Qamu balara sabr aylab duo qilg'il ,
Kim o'la do'st rizosi hamon sanga hosil, Rizoyi do'stdur asli tamattu', ey g'ofil,

Bu musaddasda Fuzuliy insonni ichki tarbiya va ruhiy poklanishga chaqiradi. Shoir avvalo o'ziga murojaat qilib, Ey Fuzuliy, sadoqat va'dasini berdingmi, endi ahdingga vafo qil. Nolish va shikoyat qilishni bas qilib, ma'shuqa (Haq) bilan bo'ladigan tortishuv va mojarolarni tark et. Barcha balolarga, dardlarga sabr qilib, faqat duo va iltijo bilan mashg'ul bo'l. Toki senga har doim Do'stning (Allohning) roziligi nasib etsin. Ey g'ofil (haqiqatdan bexabar) inson, bilib qo'yki, bu dunyodagi eng oliy lazzat va foyda (tamattu' – bahralanish, foydalanish) – faqat Do'stning roziligidir. Inson faqat til bilan emas, balki amalda ham vafo ko'rsatishi kerakligini uqtiradi. Shundan keyin u insonni shikoyat va janjallardan qaytaradi, chunki tasavvufiy qarashda bu holatlar qalbni qoraytiradi va odamni Haqdan uzoqlashtiradi. Keyingi misralarda inson o'zini sinov va balolarga tayyor tutishi kerakligi aytiladi – bu yerda balo yomon narsa sifatida emas, balki insonni poklaydigan, sabrni mustahkamlaydigan vosita sifatida talqin qilinadi. Shoir barcha qiyinchiliklarga sabr bilan qarash va doimo duo qilishni eng to'g'ri yo'l sifatida ko'rsatadi. Yakunda esa asosiy g'oya ochiladi: inson uchun eng katta yutuq yoki lazzat dunyoviy narsalar emas, balki Allohning roziligidir. Kimki sabr, tavoze va ixlos bilan yashasa, ana shu oliy ne'matga erishadi.

T/r	<u>Alifbo</u>	<u>G'azallar soni</u>	<u>Joylashgan sahifasi</u>
1.	Alif (ا)	23 ta	1a dan, 9a gacha
2.	Ba (ب)	13 ta	9a dan, 14a gacha
3.	Ta (ت)	7 ta	14a dan, 16b gacha
4.	Sa (ث)	2 ta	16b dan, 17a gacha
5.	Jim (ج)	4 ta	17a dan, 18 a gacha
6.	Ha (ح)	8 ta	18a dan, 20b gacha
7.	Xo (خ)	3 ta	20b dan, 21b gacha
8.	Dal (د)	2ta	21b dan, 22a gacha
9.	Zal (ذ)	1 ta	22a dan, 22b gacha
10.	Ro (ر)	38 ta	22b dan, 36a gacha
11.	Za (ز)	9 ta	36a dan, 39a gacha
12.	Sin (س)	4 ta	39a dan, 40b gacha
13.	Shin (ش)	6 ta	40b dan, 42b gacha
14.	Sod (ص)	1 ta	42b
15.	Dod (ض)	2 ta	42b dan, 43a gacha
16.	To (ط)	1 ta	43b
17.	Zo (ظ)	1 ta	43b
18.	'Ayn (ع)	4 ta	44a dan, 44b gacha
19.	G'oyin (غ)	3 ta	45a dan, 45b gacha
20.	Fa (ف)	2 ta	46a dan, 46b gacha
21.	Qof (ق)	3 ta	46b dan, 47b gacha
22.	Kaaf (ك)	9 ta	47b dan, 50a gacha
23.	Laam (ل)	2 ta	50a dan, 52a gacha
24.	Miim (م)	24 ta	52a dan, 60b gacha
25.	Nuun (ن)	20 ta	60b dan, 67b gacha
26.	Vaav (و)	4 ta	67b dan, 69a gacha
27.	Haa (هـ)	11 ta	69a dan, 72b gacha
28.	Yaa (ي)	38 ta	72b dan, 86a gacha

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Fuzuliy she'riyati yuksak badiiy mahorat, chuqur falsafiy mushohada va tasavvufiy ruh bilan ajralib turadi. Shoir asarlarida inson ruhiyati, sabr, vafo, ilohiy muhabbat hamda ma'naviy kamolot masalalari yetakchi mavzu sifatida talqin etilgan. Ayniqsa, qo'lyozmada uchraydigan musaddas va g'azallar shoirning insonni ruhiy poklanish va Haq roziligiga erishishga da'vat etuvchi g'oyalarni yaqqol namoyon qiladi.

Shuningdek, tadqiqot qo‘lyozma manbalarni o‘rganish mumtoz adabiyot tarixini tiklash, matnlarning asl nusxalarini aniqlash va turkiy adabiy merosni ilmiy muomalaga kiritishda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqladi. “Fuzuliy devoni” qo‘lyozmasi nafaqat adabiy, balki tarixiy va manbashunoslik jihatidan ham qimmatli manba bo‘lib, kelgusida matnshunoslik, kodikologiya va adabiyotshunoslik yo‘nalishlarida olib boriladigan tadqiqotlar uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. E.Ochilov “Muhammad Fuzuliy” – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2022, 3-bet.
2. Rasul X. Muhammad Fuzuliy (So‘zboshi) // Muhammad Fuzuliy. Asarlar. Ikki jildlik. 1-jild. Devon. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 1968, 8-bet.
3. Muhammad Fuzuliy. Asarlar. 1-jild, 21-bet.
4. P.Shamsiyev “Navoiy asarlari lug‘ati”- Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972, 591-bet.
5. Muhammad Fuzuliy. Kulliyot, ikki jildlik. ikkinchi jild. – T.: “Niso nashriyot va matbaa uyi”, 2024

*Bul dunyaning karki adam b'las
Ajiniyaz*

